

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

KURS ISHI

BAJARDI: UZOQOVA AZIZA
TEKSHIRDI: RIZAYEV O

“OYONAM QAYNONAM” spektakli tahlili

Muallif : Nurillo Abbosxon

Rejissor: Bahodir Nazarov

Muallif haqida

Nurillo Abbosxon 1958-yil 10-oktabrda Namangan viloyati Chortoq tumanida tug'ilgan. Ota –onasi ham laparlari, she'rlarning shaydosi bo'lganligi yosh qalamkashning shu muhitda tarbiya topishiga zamin yaratdi. Ijod olamiga dastlab xavaskor sifatida kirib kelgan ijodkor bu sohaga astoydil qiziqib qoladi. Uning ijodi viloyatdagi madaniyat uyida ishlab yurgan kezlardan boshlangan. Giyohvandlikning salbiy oqibatlariga bag'ishlangan “ G'aflat qurbonlari” nomli pesa yozadi va uni drama to'garagining xavaskor ijrochilariga topshiradi. Bu asar viloyat aholisi tomonidan iliq kutib olinadi. Shundan so'ng viloyat va respublika miqyosida hikoya, ilmiy maqolalari, roman, qissa, dramatic dostonlari e'lon qilina boshlaydi. Bugungi kunga qadar dramaturgiya yo'nalishida samarali ijod qilayotgan dramaturglardan biri desak ham bo'ladi. Ijodkorning dramatic asarlari qatoriga “ Mehr quyoshi” , “ Go'zal dunyo zulmati”, “ Salom yoki xayr”, “ Bog””, “ Qarzi xasana” , “ Oyonam qaynonam”, “Tanho yulduzim” , “Aziz” , “Bahor shamoli” , “Baxtli bo'linglar” , ” Super musofir” , “ Mening yulduzim” kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev bilan birgalikda siyosiy, ijtimoiy mavzudagi “ Ezgulik yo'lida “ pesasini yaratgan.

Dramatik asarlar bilan bir qatorda kino san'ati uchun ham ssenariylar yaratgan. Bu kinolar muxlislarga ma'lum va mashhurdir. Ya'ni "Sevginator-2", "Umid", "Senga muhtojman", "Yigit yig'lamasin", "Muhabbatnoma" kabi kinolar so'zimizning isboti bo'la oladi. Bundan tashqari muallifning e'lon qilinmagan asarlari ham bir qanchani tashkil qiladi. Bugun biz fikr yuritmoqchi bo'lgan "O'zbekcha raqs" (pesaning muallif tomonidan nomlanishi) asari ham Nurilla Abbosxonning eng muvaffaqiyatli asarlaridan deyish mumkin. Sababi bu asar bir necha yillardan beri Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama teatrida muxlislar e'tiboriga xavola etilmoqda va tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinmoqda.

Asarning yaratilish tarixi: Muallifning aytishicha, "Namangan haqiqati" gazetasida Chustlik do'ppido'z ayol haqida maqola beriladi. Bu maqolani u juda katta qiziqish bilan o'qib chiqadi. Maqolada do'ppichilikda o'ris nusxa san'atini yaratgan Valentina ismli ayol haqida yozilgan edi. Maqolani o'qidimu qo'limga qog'oz qalam oldim. Tasavvurimdagi rus ayoli o'zbekona qiyofada namoyon bo'laverdi. Asarimda ham shularni aks ettirishga harakat qildim. Buning nechog'lik uddasidan chiqqanligimni tomoshabin baholaydi" deb yozadi muallif o'z tarjimai holida. Birgina maqola ta'sirida butun bir asarni qanday yozib tugatganligini bilmay qoladi. Asar 2 parda, 17 ko'rinish va xotimadan iborat.

Asarning syujetiga to'xtaladigan bo'lsak, voqea rus yerlarida boshlanadi. Rus yerida harbiy xizmatni ado etgan Tursunboy shu millatdan bo'lgan Masha bilan yaxshi ko'rishib qoladilar va Mashani o'z yurtiga olib ketmoqchi bo'ladi. Masha ham ketishga qaror qiladi.

Voqealar Qumri ayaning uyiga ko'chadi. Qumri aya Tursunboyning onasi. U yakkayu yagona o'g'lini yolg'iz katta qiladi. Qishloqdagi yaxshi qizlardan birini kelin qilib olish niyatida yurgan bir paytda Tursunboy qosh ko'zlari xattoki sochlari ham sap-sariq bo'lgan qizni yetaklab keladi. Spektakl aynan shu sahnadan boshlanadi. Pesaning tuguni ham aynan shu sahnada. Qumri aya dastlab Mashani qabul qilolmaydi. Mashaga millatimizdagi udumlarni o'rgatish bilan bir qatorda unga o'zi ham bog'lanib qolganligini bilmay qoladi. O'zbekona hayot, urf-odatlar, butunlay boshqacha liboslar, tinimsiz mehnat qilish Mashani bezdiradi xatto bir necha marta ketib qolmoqchi ham bo'ladi. Uni Tursunboyga bo'lgan sadoqati, mehr muhabbati qaytishga majbur qiladi. Zo'rlab dalaga chiqarishlar, erining ham hamisha dalada bo'lishi uni qo'rquvga sola boshlaydi. Qumri ayaga qo'shilib paxta terar, uy yumushlarini bajarar edi. Qumri aya do'ppido'zlikda tengi yo'q mohir hunarmand bo'ladi. U Mashaga ham o'z kasbining sir asrorlarini o'rgatadi. Masha ham Qumri ayadan do'ppini mehr bilan tikishni o'rganib oladi. Tursunboy esa erta-yu kech dalada mehnat qilar, Masha bilan dildan gaplashishga ham, ikki ayolning og'irini yengil qilishga ham vaqt topa olmaydi. Shunday kunlarning birida oilaning boshiga tashvish tushadi. Qumri ayaning yakka-yu yagona farzandi Tursunboy zaharli dori sepadigan traktorda ishlagani uchun kasallanib qoladi. Spektaklning kulminatsion nuqtasi aynan shu sahnada sodir bo'ladi. Ya'ni yagona farzandining bu hayotda qolishi, o'zidan keyin chirog'ini yoqishi uchun Qumri aya erta-yu kech sajdaga bosh urib nola qiladi. Dastlab yolvorish ohangida boshlangan iltijolar norozilik ohangida davom etadi. Shu kecha tuni bilan yaratganga zikr aytib bolamning

dardini menga ber deb raqsga tusha-tusha holdan toyib qoladi. Bu oddiygina raqs emas, unda onaning farzandiga mehri, dard xasratlari hamda hech kimga aytoilmagan sirlari aks etadi. Tursunboy tuzalib ketadi. Tursunboy va Mas'halarining baxtini ko'rgan Qumri ayaning ko'ngli xotirjam bo'ladi. O'ziga dard tilab bo'lsa ham farzandining sog'ligini ko'rgan Qumri aya vaqti soati tugab borayotganini, umrining yakunida keliniga hamma narsani topshirib ketishi kerakligini anglaydi. Maryam (Masha) bu gaplarni keksalikdan deb oylaydi va uni yo'qotishini xayoliga ham keltirmaydi. Tursunboy tuzalib boshqa ishda ishlay boshlaydi. Shu orada bu oilada farzandlar ko'payib, Qumri ayaning bag'ri to'lib qoladi. Ular to'rt o'g'il ikki qizli bo'ladilar. O'z vazifamni bajardim, farzandlarim baxtini ham ko'rdim deya Qumri aya olamdan o'tadi. Asar davomidagi yuk ham oila tashvishlari ham endi Maryamning boshiga tushadi. Endigina qaynonasining yo'qligiga ko'nikayotgan bir paytda Maryamning boshiga birin-ketin kulfat tusha boshlaydi. Davlat mulkini o'zlashtirganlikda ayblanib Tursunboy qamalib chiqadi. Qamoqdan kasal bo'lib chiqadi va hech qancha vaqt o'tmay olamdan o'tadi. Maryam barcha dardlarni mardonavor yengish jarayonida o'zi ham Qumri ayaga o'xshab qolganligini sezmay qoladi. Maryam do'ppido'zlikni ham davom ettiradi. U yaratgan do'ppilar ham xuddi qaynonasinikidek bejirim bo'lib chiqadi. Uyiga ko'ngil so'rash uchun kelgan mehmon do'ppilarning farqini bilmay qoladi. Yillar o'tib Maryamning o'zi ham qiz uzatib kelin oladi. Ammo kenja o'g'li shahardan o'zi ko'ngil qoygan qizni yetaklab kelishi Maryamning boshidan o'tgan kunlarni yodiga soladi va qaynonasini tushuna boshlaydi. Maryam ham uni qabul qilmayman deb oyoq tirab turib oladi.

Bolalari o'rtaga tushib uni sinab ko'rishga ko'ndirishadi. O'zbekcha raqsga tushishni bilasanmi deya o'zi dilhiroj musiqasiga raqsga tushib ko'rsata ketadi. Bu raqs shukronalik raqsi. Qumri aya majburlikdan, quvonchdan raqsga tushgan bo'lsa, Maryam baxtdan , quvonchdan raqsga tushadi. O'zi qachonlardir qilgan beboshliklarini kenja kelinida ko'rib ham xayratlanadi ham kuladi. Spektakl bilan pesaning tafovutlariga to'xtaladigan bo'lsak, spektaklda voqealar Qumri ayaning uyidan boshlanadi. Maryamning farzandlari bilan bog'liq sahnalar, xatna qilish sahnasi spektaklda olib tashlangan. Spektaklda Tursunboy kasal bo'lib qolgach Qumri aya zikr tushadi. Va o'g'li tuzalgandan so'ng, o'limi yaqinlashganini sezgach hamma narsani xususan hunarini Maryamga topshiradi. Spektaklda voqealar Qumri ayaning o'limi bilan yakunlangan. Pesada esa Qumri aya nevaralarini tarbiya qiladi. Orada yaxshi kunlar bo'ladi. Tursunboy tuzalib chiqqach tabelshiklikka o'tadi. So'ng Qumri aya xotirjam bo'lib ularni tashlab ketadi. Shundan so'ng Maryamning boshiga qiyinchiliklar tushadi. Tursunboy qo'shib yozganlikda ayblanib qamalib chiqadi. Qamoqdan kasal bo'lib chiqadi va olamdan o'tadi. 6 ta farzandi bilan Maryam yolg'iz qoladi.

Spektakl tayyor bo'lishi uchun bir qancha ifodaviy vositalardan foydalaniladi. Dastlab liboslarga to'xtaladigan bo'lsam liboslarda o'zbekona milliy ruh sezilib turibdi. Davr muhitini ham yoshga xos xususiyatlarni ham liboslar orqali ochib bera olgan. Spektakl tragic komediya janrida. Musiqiy teatr bo'lganligi uchun spektakl g'oyasini ochib beruvchi milliy ruhda musiqalar, arialar yozilgan. Spektakl rejissori jamoaga to'g'ri vazifa bera olgan. Ularni bir maqsad yo'lida birlashtira olgan. Spektaklning muvaffaqiyatiga ham shu sabab bo'lgan

desak mubolag'a bo'lmaydi. Qumri aya rolining ijrochisi Maryam Ixtiyorova Dilbar Ikromovaga qaraganda jiddiy qattiqqo'l qaynonaga o'xshagan. Masha (Maryam) ning esa Asal ijrosida sho'xlik, samimiylik, ochiqko'ngillik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarning mazmun- mohiyatini ochishda xarakterlar ham muhim ahamiyatga ega.

Qumri aya – nurli o'zbek ayoli . Xokisor, mehnatkash, beg'ubor, mehribon, soddadil, bolajon va pokdamon. Hayotda faqatgina farzandining baxtini ko'rish uchun yashab kelayotgan munis va mo'tabar ayollardan biri. Asar davomida uning xazil-mutoyibaga ham moyilligi borligini ko'rishimiz mumkin. Asarning boshida u Tursunboy yetaklab kelgan kelinni yoqtirmasa ham voqealar so'ngida u o'z kasbini ham bor mehrini ham keliniga meros qoldiradigan qiyofada namoyon bo'ladi.

Masha(Maryam)- oq yuzli, ko'k ko'zli, bosiq so'zli, xayolparast, ko'ngilchan o'ris qizi. Asar davomida u Qumri ayaning xarakterini tushunishga, u ishlatayotgan sof o'zbek so'zlarini o'zlashtirib ularni qo'llashga harakat qiladi. Hayot qiyinchiliklari uning boshida gir aylanganda ham hech qachon o'z turmushidan, atrofidagi yaqinlaridan nolimaydi. Tug'ilgan yurti boshqa bo'lishiga qaramay, sabr-qanoatli o'zbekchilik an'analarini o'zida aks ettira olgan hokisor ayol.

Tursunboy- Qumri ayaning yolg'iz farzandi. Soddadil, mehnatkash o'zbek yigiti. Doim kulib yuradigan, yorini jonidan ortiq sevadigan, onasining ko'nglini og'ritishdan qo'rqadigan mehribon yor va mehribon farzand. Bundan tashqari asarda Mashaning ota-onasi Vasiliy, Vera, Pavel, Boris, Shahobjon, Dilbar, Toshvoy, Mulla, Sartarosh, Sharifa kabi o'ziga xos personajlarni uchratishimiz mumkin.

Mashaning ota-onasi farzandining rayiga qaraydigan, bir kun ishlasa kechasi bilan oyin-kulgi qilib chiqadigan insonlar.

Shahobjon (Qumri ayaning ukasi) –asar boshidan oxirigacha mast holatda ko'rinadi. Topgan puliga ichadi.

Toshvoy- o'ta darajada hayotga yengil qaraydigan, o'zini siyosiy hukumatning a'zosi deb biladigan, jamiyatning illati hisoblangan inson. Ayollar mehnat qilsa shahvoniy ko'zlari bilan qarab turadigan, ko'ziga chiroyli ko'ringan ayolni yo'ldan urishga harakat qiladigan yengiltabiat inson.

Dilbar xola – Qumrining ovsini. Uni bunga yomonlab kunini kech qiladigan g'iybatchi, g'arazgoy ayol.

Voqealar rivojlanib borgan sari har bitta personajning xarakteri va maqsadi ochilib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu asar milliyligimizning namunasi. Unda milliylik ufurib turibdi. Asarda bolajonlik, avlodlarni davom ettirish istagi, bag'rikenglik va hunarmandlik kabi xususiyatlar alohida ulug'lanadi. Qumri aya va Maryam misolida ayolning bardoshi, uning muhabbati, tuyg'ulari yuqori darajada ko'rsatib berilgan. Bir xonadonda ikki xil millatga mansub ayol yashayapti. Voqealar butunlay boshqacha tus olishi ham mumkin edi. Ya'ni Masha o'zgarishi o'rniga Qumri aya ruslashib ketishi ham mumkin edi. Muallif barchamizning e'tiborimizni shu narsaga qaratmoqchi bo'lgan. O'z dunyoqarashiga, o'z madaniyatiga ega bo'lgan o'zbek ayoli bitta emas o'nta millat vakilini ham tarbiyalashga qodir. Tomoshabin spektaklning boshidan oxirigacha nima bo'lar ekan deya hayajonda kuzatadi. Asar orqali ayol dastlab shogird bo'ladi, vaqt o'tgach o'zi ham ustozga aylanishi

mumkinligi , umrning o'zi eng qiziqarli musiqa, eng chiroyli raqs esa ana shu umrni mazmunli o'tkazgandagi rohat hisoblanadi. Muallif bu asari bilan insonni, ayniqsa ayolni qanday millatdan ekanligi emas, hayotning qiyinchiliklariga qanday dosh bera olishi bilan qadrli demoqchi nazarimda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Nurillo Abbosxon – O'zbekcha raqs
2. Teatr jurnali 2009-yil 6-son.
3. Ziyonet. Uz
4. H. Abdusamatov- Drama nazariyasi
5. H. Ikromov – Davr va teatr.